


"TASDIQLAYMAN"  
O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI  
REKTOR \_\_\_\_\_ U.B.AZIZOV



**Ilmiy innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish bo'limi huzurida "Forsayt"  
inkubatsiya va akseleratsiya markazi ochilish marosimi to'g'risida**

### BAYONNOMA

**31 mart 2021 yil**

**Qatnashdilar: 130 nafar**

**Qatnashdilar:** O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti rektori U. Azizov, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor G. Bakiyeva, Ilmiy-innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish bo'limi boshlig'i F. Abdullayeva, "Forsayt" inkubatsiya va akseleratsiya markazi rahbari Sh. Temirova, Innovatsion va axborot texnologiyalari (IT) bo'yicha muhandis M. Bo'tayev, Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki (IT PARK) direktori Ibragimov Farhod Zoirovich, "Iman" startap loyiha direktori Raxmatov Rustam Abdullayevich, "Media Dizayn" loyihasi asoschisi Tojiboyev Jasur va universitet prorektorlari, fakultet dekanlari, fakultet dekan muovinklari hamda iqtidorli talabalar.

2021-yilning 31-mart kuni soat 10:00 da O'zDJTU markaziy binosida Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki (IT PARK) bilan hamkorlikda Forsayt inkubatsiya va akseleratsiya markazi ochilish marosimi bo'lib o'tdi.

Markazning ochilish marosimida Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim

vazirligi, Toshkent shahar hokimligi, dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki vakillari, faxriy mehmonlar va faol iqtidorli qiziquvchi yoshlar ishtirok etishdi.

Markazning ochilish marosimida universiteti rektori U. Azizov so'zga chiqdi. Ilmiy innovatsion ishlanmalarni tijortalshtirish bo'limi bugungi kunda g'oyalarni innovatsion yondashuv asosida amalga oshirib kelmoqda va ko'plab yutuqlarga erishdi. Mana bugun ko'rib turganingizdek yana bir yutug'imiz, bo'lim huzurida Forsyat inkubatsiya va akaseleratsiya markazini ochilishi tashkil etdik.

Markazning maqsadi ta'lim yo'nalishida sog'lom startap ekotizimini yaratish, ta'lim va ishlab chiqarishni integratsiyalash, qolaversa biznes g'oya va ilmiy innovatsion ishlanmalarni saralash, istedodlarni kashf qilish, shijoatkor talaba yoshlarimizni biznes loyihalarini qo'llab quvvatlashdan iborat.

Biz bugun nafaqat tanatanali markaz ochilish marosimi tashkil etdik balki startap loyihalar bo'yicha tanlovlarda O'zbekistonda va jahonda birinchilikni egalagan va bugungi kunda startap loyiha bo'yicha o'zining biznesini yolga qo'ygan va yuqori natijalarga erishgan tadbirkorlarimizni taklif etdik. Ular o'z nutqlarida startap loyihalalarini ilk g'oyasidan boshlab bugungi kunda erishgan yuqori marragacha bo'lgan jarayon haqida so'zlab berishadi. Markaz ochilish bilan barchani tabriklab, tadbirni ochib berdi.

Keyingi so'z navbati Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki (IT PARK) direktori Ibragimov Farhod Zoirovichga berildi: 2019-yil 24-iyulda Toshkentda O'zbekiston Respublikasidagi birinchi IT Park ochildi. Ushbu qisqa vaqt ichida IT Park 28 yangi startaplar ko'rinishidagi birinchi mevalarini berdi, axborot texnologiyalari sohasida o'nlab loyihalarni yaratdi, shuningdek, yoshlarni rag'batlantirish, ushbu sohaga qiziqishi va aholida kompyuter savodxonligini rivojlantirish uchun treninglar, "vorkshop" va "mitap"lar yaratdi.

IT Park – bu IT-kompaniyalar uchun istiqbolli boshlang'ich loyihalarni, tashqi iqtisodiy zonani, shu jumladan ilmiy va ta'lim tashkilotlari bilan integratsiyalashgan holda ishga tushirish va bozorga chiqarishni ta'minlash uchun mo'ljallangan obyektlar, bino va inshootlar majmuasi. IT sohasida faol va iqtidorli

insonlar buxgalteriya hisobi, yuridik, marketing va ta'lim orqali o'z g'oyalarini haqiqiy biznes loyihalariga aylantirish uchun haqiqiy imkoniyatga ega bo'ladigan joy.

Marosim Startap loyihalar namoyishi bilan davom etdi. "Iman" startap loyiha direktori Raxmatov Rustam Abdullayevich so'zga chiqdi: IMAN — bu har bir narsa Allohdan ekanligiga samimiy ishonchdir. IMAN INVEST — bu adolatli sherikchilik, himmatli savdo va mablag'larni rivojlangan davlatlardan rivojlanayotgan davlatlarga yo'naltirish orqali insonlar barakasini oshirishga mo'ljallangan ilovadir. "Oliy maqsadimiz — dunyodagi barcha insonlar iqtisodiy erkinlikka erishishlari uchun adolatli va shaffof moliyaviy mahsulotlardan foydalanish jaryonini osonlashtirish. Biz IMANni milliardlab insonlarga iqtisodiy erkinlik taqdim etish uchun yaratdik va doimo yangi iste'dodlarni izlaymiz." Faoliyatimiz a'lo darajada boshlandi, lekin oldinda qilishimiz kerak bo'lgan ishlarimiz juda ko'p. IMAN faoliyatining muvaffaqiyatli boshlanishi ta'sischi va maslahatchilarning 2 yillik mehnati natijasidir. Endi barchasi jamoamiz qo'lida. Bu, kasbiy faoliyatingizni eng muhim qismi sifatida O'zbekiston va keyinchalik dunyoda millionlab insonlar uchun moliyaviy xizmatlardan foydalanish jarayonini osonlashtirishdek tengsiz imkoniyatga egaligingizni anglatadi.

"Media Dizayn" loyihasi asoschisi Tojiboyev Jasur: mediadizayn – bu yangi kommunikatsiya muhitini yaratishdir. Mediadizayn ommaviy axborot vositalari faoliyatida va kommunikatsiyalar sohasida chuqur nazariy bilim, eng so'nggi texnikadan foydalana olish mahorati, keng dunyoqarash, ijodkorlik va ijodkorlik va ijodiy fikrlash talab qilinadigan soha.

"Forsayt" inkubatsiya va akseleratsiya markazi rahbari Temirova Shaxlo Raxmonovna: Markaz O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-apreldagi PQ-4966-sonli qarori bilan tasdiqlangan Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki faoliyatini yanada rivojlantirish "Yo'l xaritasi"ning 4-bandiga muvofiq, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligining 2020-yil 13-maydagi 11-8/2508-son xati va tashabbusi ostida, IT

PARK bilan hamkorlikda, 2020-yil 24-avgustdagi Universitet rektorining 412-son buyrug'i bilan o'z faoliyatini boshladi. Markaz maqsadi chet tillarni o'qitish va ta'lim yo'nalishida sog'lom startap ekotizimini yaratish, qolaversa, biznes g'oya va ilmiy innovatsion ishlanmalarni saralash, iste'dodlarni kashf qilish va ularni qo'llab quvvatlash, ta'lim va ishlab chiqarishda mavjud muammolarga innovatsion yechim topishga ko'maklashish. Shuningdek yoshlar orasida startap loyihalarga qiziqishni o'yg'otish, hamda ular orqali ta'lim va ishlab chiqarishni integratsiyasini ta'minlash. Markaz vazifalariga Universitetda sog'lom startap loyixalar ekotizimini yaratish va rivojlantirish, talaba yoshlar orasida biznes jamoalarni shakllantirish va innovatsion loyihalar yaratishga tayyorlash uchun talaba yoshlarning tashabbuslarini aniqlash va shu kabi masalalar yuklatildi.

Tadbir so'ngida talabalarning startap loyihalari taqdimoti bo'lib o'tdi va kelgan mehmonlar kofe breykka taklif qilindi.

**Tadbir uchun ma'sul shaxslar:**

**Ilmiy ishlar va innovatsiyalar  
bo'yicha prorektor:**




**G. Bakiyeva**

**Ilmiy-innovatsion ishlamalarni  
tijoratlashtirish bo'limi boshlig'i:**



**F. Abdullayeva**

**"Forsayt" inkubatsiya va  
akseleratsiya markazi rahbari:**



**Sh. Temirova**

**Innovatsion va axborot texnologiyalari  
(IT) bo'yicha muhandis:**



**M. Bo'tayev**












*Ассалому алайкум*

*Ҳурматли \_\_\_\_\_!*

*Сизни 2021 йилнинг 31 март куни соат  
10:00 да Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университетида  
Дастурий маҳсулотлар ва ахборот технологиялари технологик парки  
(IT ПАРК) билан ҳамкорликда таъшиқ этилган Форсайт инкубақия  
ва акселерақия маркази очилиш маросимига таклиф этамиз.  
Меҳмонимиз бўлишингиздан мамнун бўламиз!*

*Ҳурмат ва эҳтиром ила  
ЎзДЖТУ ректори*



*У.Б. Азизов*